

## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH

**O‘.E.Bo‘taev**

TDIU mustaqil izlanuvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlariga kirishdagi asosiy to‘siqlari, moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj darajasi, shuningdek, tijorat banklarining amaldagi mexanizmlari yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida rivojlanish yo‘llari ko‘rib chiqilib, kichik biznesni moliyalashtirishni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

### **Kalit so‘zlar:**

Kichik biznes, tijorat banklari, moliyalashtirish, kreditlar, foiz stavkasi, garov, subsidiya, davlat kafolati, bank xizmatlari, tadbirkorlikni rivojlantirish.

### **Abstract**

This article analyzes the current state of financing small business entities by commercial banks, existing problems, and ways to overcome them. The main barriers to small entrepreneurs' access to banking services, the level of demand for financial resources, as well as the existing mechanisms of commercial banks are highlighted. Development paths are considered based on international experience, and proposals for further improving small business financing are developed.

### **Keywords:**

Small business, commercial banks, financing, loans, interest rate, collateral, subsidy, government guarantee, banking services, entrepreneurship development.

### **KIRISH**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes milliy iqtisodiyotning eng faol va tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni nafaqat ish o‘rinlarini yaratish, balki innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, hamda soliq bazasini kengaytirish kabi yo‘nalishlarda ham ahamiyatlidir. Ammo kichik biznes subyektlari ko‘p hollarda moliyaviy resurslarga yetarlicha ega emas, bu esa ularning o‘sishi va raqobatbardoshligini cheklaydi.

Tijorat banklari ushbu muammoni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Banklar tomonidan kichik biznesga yo‘naltirilgan kreditlar, moliyaviy xizmatlar va maslahatlar orqali bu sohaning rivojiga sezilarli hissa qo‘shish mumkin.

Biroq, amaliyotda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ularni aniqlash va yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish borasidagi mavjud holat, muammolar, xorijiy tajriba, shuningdek, rivojlantirish istiqbollari IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Kichik biznesni moliyalashtirish sohasida ko‘plab olimlar va iqtisodchilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan:

Beck va Demirgüç-Kunt (2006) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kichik biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlarga kirishi muammolari va bu muammolar bank tizimining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

[1]

O‘zbekiston sharoitida Q.S. Astanayev (2024) kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida aholi bandligini ta‘minlash, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishda katta rol borligi ta‘kidlangan hamda kichik biznesni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli va mavjud cheklovlarni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida yuqori foiz stavkalari va murakkab kredit olish jarayoni asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatildi. [2]

Karimov B. (2020) Karimov kichik biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini o‘rganib, banklar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlarning diversifikatsiyasi va raqamlashtirishning rivojlanishi muhimligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, u banklar va kichik biznes o‘rtasida samarali kommunikatsiya o‘rnatish, moliyaviy savodxonlikni oshirish yo‘nalishlarida davlat siyosatini ishlab chiqish zarurligini bildiradi. [3]

Raximova Z. (2022) o‘z ishida kichik biznesning moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari, bank xizmatlarining sifat ko‘rsatkichlari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini o‘rganadi. Muallif, shuningdek, tijorat banklari xodimlarining malakasini oshirish va maxsus treninglar tashkil etish orqali kichik biznesga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yaxshilash zarurligini ta‘kidlaydi. [4]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada mavzu doirasida Xalqaro tajriba, xususan, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning kichik biznesni moliyalashtirishga doir siyosati o‘rganildi va O‘zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Statistik tahlil, sifatli (qualitative) tahlil, qiyosiy tahlil va normativ-huquqiy baza tahlilidan foydalanildi.

## **Tahlil va natijalar.**

Kichik va o‘rta biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik va o‘rta biznes sharoitga tez

moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo'lga qo'yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik va o'rta biznesyirik biznes uchun qulay bo'lmagan sohalarida avj oladi. Kichik va o'rta bizneskichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini xal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda muayyan afzalliklarga ega.

Kichik korxonalar odamlarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka egalik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda Kichik va o'rta biznestarixiy ildizga ega. Bu yerda azaldan hunarmandchilik rivojlangan. To'qimachilik, kosibchilik, kulolchilik, amaliy san'at, ganchkorlik, temirchilik, o'ymakorlik bilan shug'ullaniladigan kichik-kichik ustaxona va do'konlar ko'p bo'lgan. O'zbekistonda mavjud kichik va o'rta biznes korxonalar sanoat, qurilish, savdo, maishiy, tibbiy, transport xizmatlari ko'rsatish, ilmiy, texnikaviy axborot xizmati sohalarida, qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston bank tizimi hali ham kichik biznes ehtiyojlariga to'liq moslashmagan va muammolarning asosiy sabablari quyidagilardan namayon bo'moqda jumladan, banklar kichik biznesni yuqori xavfli deb hisoblaydi, chunki ularning kredit to'lov imkoniyati haqida aniq prognoz berish qiyin. Yoki bank xodimlari kichik biznesni tushunishda tajribasiz yoki motivatsiyasiz va moliyaviy savodxonlikning pastligi sababli, tadbirkorlar o'zlari uchun eng qulay bank xizmatini tanlay olmaydi. Shunga qaramay mamlakatimizda kichik biznesni moliyalashtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, 2020 yilda kichik biznesga tijorat banklari tomonidan 25 trln so'm ajratilgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 63 trln so'mga yetdi.[5]

Bu o'sish hukumatning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, banklar faoliyatidagi islohotlar, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik tufayli yuz berdi. Biroq barcha banklar bu yo'nalishda bir xil darajada faol emas. Kichik biznesga ajratilgan umumiy kreditlarning asosiy qismi 5–6 ta yirik bank hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezident qarorlariga asosan, kichik biznesga ajratilayotgan kreditlarga davlat kafolatlari berilmoqda. Shuningdek, "Biznesni rivojlantirish jamg'armasi" orqali foiz stavkalari qisman subsidiyalanmoqda. Bu tizimdan foydalanish uchun tadbirkorlar ariza va hisobotlarni tayyorlashi, hujjatlarni to'ldirishi lozim bo'ladi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning xorij tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Germaniyada kichik biznes kreditlarini kafolatlaydigan

maxsus tashkilotlar mavjud (masalan, KfW bank). Janubiy Koreyada davlat kichik biznesga ajratiladigan kreditlarning 80% gacha qismini kafolatlaydi. Turkiyada “KOSGEB” dasturi orqali tadbirkorlarga grant, subsidiya va maslahatlar taqdim etiladi. Yaponiyada kichik biznes kreditlariga 0–3% oralig‘ida foiz stavkalari qo‘llaniladi, chunki asosiy yuk davlat tomonidan qoplanadi 1-jadval.

**1-jadval. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning xorij tajribasi**

Mamlakat	Kichik biznesga kredit kafolatlari (%)	Foiz subsidiyasi mavjudligi	Kredit olish jarayoni
Germaniya	70–80	Ha	Soddalashtirilgan, raqamlashtirilgan
Janubiy Koreya	80	Ha	Elektron tizim orqali
Turkiya	60	Ha	Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi

Xalqaro tajribalar o‘rganilib, O‘zbekistonda ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha integratsiyalashgan tizimni joriy etish zarur. Shu jumladan, foiz subsidiyalari, davlat kafolatlari va raqamlashtirish kabi mexanizmlarning kengaytirilishi kichik biznes moliyalashtirishni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamlashtirish orqali kredit olish, hujjat topshirish, ariza berish jarayonlari elektron tizimlar orqali amalga oshirilsa, kichik biznes uchun bu qulayliklar yaratadi. Bugungi kunda ba’zi banklar bu borada ilgari ketgan (masalan, Ipak Yo‘li bankinging "Digital SME" platformasi), biroq ko‘pchilik banklar hali bunday xizmatlarni taklif etmaydi.

### **Xulosa va Takliflar**

Kichik biznesni moliyalashtirish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tijorat banklari ushbu jarayonda muhim vositachi sifatida ishtirok etadi. 2020–2024 yillar davomida banklar tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish hajmi oshgan bo‘lsa-da, tizimda hali yechimini kutayotgan muammolar ko‘p. Foiz stavkalarini subsidiyalashni kengaytirish Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar qamrovini kengaytirish orqali banklar tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalarni kamaytirishga erishish.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beck, T. and Demircuc-Kunt, A. (2006) Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. Journal of Banking and Finance, 30, 2931-2943.
2. Astanayev Q.S. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda asosiy muammolar va ularni yeshimi. "Экономика и социум" №12(127)-1 2024
3. Karimov B. (2020) — "O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning istiqbollari"
4. Raximova Z. (2022) — "Tijorat banklari faoliyatida kichik biznesga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish"
5. Sbu.uz - Markaziy bank ma'lumotlari